

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI

Abdukarimov Azamat Zokirjanovich

**5230100-“Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)” ta’lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Qishloq xo`jaligida agroservis xizmatlari bozorining
rivojlantirish yo`nalishlari**

Ilmiy rahbar:

dots.Sh.Ruzmetov

Urganch 2019 yil

**MAVZU: QISHLOQ XO`JALIGIDA AGROSERVIS XIZMATLARI
BOZORINING RIVOJLANTIRISH YO`NALISHLARI**

MUNDARIJA

KIRISH

**I - BOB. QISHLOQ XO`JALIGIDA AGROSERVIS XIZMATLARINING
IQTISODIY ASOSLARI**

- 1.1.O`zbekistonda qishloq xo`jaligida agroservis xizmatlari tuzilmasini shakllanish bosqichlari
- 1.2.Agroservis xizmatlari samaradorligini baholash ko`rsatkichlari
- 1.3.Agroservis xizmatlari bozorining asosiy segmentlari va yo`nalishlari

**II - BOB. QISHLOQ XO`JALIGIDA AGROSERVIS XIZMATLARI
BOZORINING RIVOJLANISH YO`NALISHLARI**

- 2.1.O`zbekistonda agroservis xizmatlari bozorining SWOT tahlili
- 2.2.Agroservis xizmatlari bozorining samaradorligi
- 2.3.Qishloq xo`jaligini ekinlarini yetishtirishda hududiy imkoniyatlari va ularni baholash

XULOSA VA TAKLIFLAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublika iqtisodiyotini erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoiti agrar sektorni tizimli va uzliksiz taraqqiyotini ta'minlashda qishloq xo`jaligi korxonalar (fermer va dehqon xo`jaliklari)da ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va samarali faoliyat yuritishiga ko`mak beruvchi, ularga turli xizmatlar ko`rsatuvchi agroservis subyektlarini ko`paytirish va rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bu masalada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasida so`zlagan nutqida «Fermerlarga mexanizatsiya xizmatlari bo`yicha ko`rsatilayotgan yordamni kengaytirish, ularni mineral o`g`it sifatli urug`lik va kichik texnologiyalar bilan ta'minlash, tegishli axborot xizmati ko`rsatishni yaxshilash, lizing xizmati bilan bog`liq masalalarni hal qilish zarurligi va ayniqsa, xizmatlar va servis sohasining joriy yilda keskin o`sishi... qishloq joylarida bu sohani yanada kengaytirish uchun hali-beri foydalanimayotgan katta imkoniyatlar mavjudligini ko`rsatmoqda»¹ deb ta'kidlaganlar.

Bugungi kunda Respublikamiz Prezidentining bir qator Farmonlari va ular asosida qabul qilingan hukumat qarorlarida qishloq xo`jaligi korxonalariga xizmat ko`rsatuvchi agroservis subyektlarini ustuvor rivojlantirish bo`yicha ishlab chiqilgan dasturlar asosida keng ko`lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda ushbu jarayonning tegishli me'yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilinmoqda.

Lekin, tadqiqotlarning ko`rsatishicha, qishloq xo`jaligida rejali taqsimot yoki markazlashgan fond orqali taqsimlash tizimi hozirgacha ham saqlanib, xizmat ko`rsatish korxonaları sust rivojlanmoqda, xo`jaliklarning servis xizmatlariga bo`lgan talablari etarli darajada qondirilmayapti. Ushbu sohalarda hanuzgacha sog`lom raqobat muhit shakllanmagan, xizmat ko`rsatuvchi korxonalarining zamonaviy muqobil va nodavlat shakllarini tashkil etish va zarur investitsiyalarni jalb qilish talab darajasida emas. Bu esa o`z navbatida agroservis xizmatlari

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi. Xalq so`zi, 2019 yil 19 yanvar.

tizimining shakllanishi va rivojlanishiga to`siq bo`lmoqda.

Shuningdek, agroservis xizmatlar bozorini shakllantirishning institutsional asoslari nomukammalligicha qolmoqda, agroservis korxonalarining qishloq xo`jaligi korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning pirovard natijasidan manfaatdorlik mexanizmi yaratilmagan, alohida olingan xudullar bo`yicha ularga bo`lgan xaqiqiy talab etarlicha o`rganilmagan va ayniqla, bozor talablari asosida agroservis xizmatlarini rivojlantirishda diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash jarayonlari hisobga olinmagan. Bizning fikrimizcha, bunday holatning mavjudligi ta'kidlangan muammolarni hal etishning ilmiy asoslangan metodologiyasining yo`qligi, shuningdek, bugungi turli mulkchilik shaklidagi qishloq xo`jaligi korxonalariga agroservis xizmatlar ko`rsatish tizimini bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga mos rivojlantirish bo`yicha yagona strategiyaning ishlab chiqilmaganligi ham ushbu yo`nalishda keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni tahsis-etmoqda.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy subyektiga aylangan fermer xo`jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlari o`lchamlarining maqbullahuvi, ko`p tarmoqli ishlab chiqarishga o`tilishi kabi sabablar nafaqat agroservis xizmatlariga bo`lgan talabning keskin ortishiga, balki ushbu tizimda diversifikatsiyalash jarayonini takomillashtirish zaruratiga olib kelmoqda. Zотан, hozirgi sharoitda mahsulot ishlab chiqaruvchilarni sifatli va arzon agroservis xizmatlariga bo`lgan talabini o`z vaqtida qondirish jiddiy muammolardan biri bo`lib qolmoqdaki, bu esa o`z navbatida qishloq xo`jaligining barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olib, agrar tarmoqda servis xizmati tizimi shakllanishining hozirgi darajasini mintaqalar miqyosida keng va chuqur tahlil qilish, uning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bo`yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish eng dolzarb masalalardan biri ekanligini e'tirof etish o`rinlidir.

Muammoning o`rganilganlik darjasи. Bozor va muomala sohalari nazariyalari asoslari hamda agrar sohada agroservis xizmatlari samaradorligini

oshirishning metodologik muammolarining ayrim nazariy va uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar - K.R.Makkonnell, S.L.Bryu, F.Kotler, P.Samuelson, VLordxaus, A.Xosking² asarlarida o`z aksini topgan. Agroservisning u yoki bu yo`nalishlariga oid tadqiqotlarni Hamdustlik mamlakatlari olimlari - L.I.Abalkin, I.N.Buzdalov, I.YA.Petrenko, P.I.CHujinov³ va boshqalarning asarlarida uchratish mumkin.

Agroservisni rivojlantirish, uning yo`nalishlarini kengaytirish va samaradorligini oshirish muammolari mamlakatimizda bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan E.Akramov, A.A.Abduganiev A.V.Vaxobov, A.M.Qodirov, S.S.G`ulomov, YO.A.Abdullaev, K.A.CHoriev, R.X.Xusanov, CH.Murodov, M.D.Pardaev, F.Nazarova, K.A.Xasanjonov, T.X.Farmonov, U.P.Umurzokov, G.X.Kudratov, N.S.Xushmatov, R.X.Ergashevlar e'tiborga molik muhim ilmiy izlanishlar olib borganlar.

YUqorida nomlari qayd etilgan iqtisodchi olimlarning agroservisga oid ilmiy izlanishlarining bu soha rivojiga qo`shgan ulkan xissalarini inkor etmagan holda shuni ta'kidlash lozimki, bozor iqtisodiyoti sharoitida, xususan, hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichi talablari doirasida agrar tarmoqda agroservisni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va samaradorligini oshirish masalalari chuqur va keng ko`lamda alohida tadqiq etilmagan. Ayniqsa, O`zbekistonl mustaqillik yillarida erishilgan yutuq va muammolarni tahlil qilish, xorijiy mamlakatlar tajribalarini umumlashtirish asosida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo`jaligida agroservisni rivojlantirish va samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish bo`yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim bo`lib, bu o`z navbatida mazkur bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlashga asos bo`ldi.

² Макконнелл К.Р., Брю СЛ., Экономикс.-Принципы, проблемы и политика. /В 2 -х томах. Нер.с ант. - Таллин. Римол. 1993. Т.: I. - 398 с; Котлер Ф. Основы маркетинга. -М.:Прогресс, 1992.- 734 с; Самуэльсон Пол А.. Нордхаус Вильям Д., Экономика: - М : Лабараторик базовых знание, 2000. - 800 с; Хоскинг А., Курс предпринимательства. - М: Международные отношения, 1993 г. -478 с.

³ Абалкин Л.И. Курс переходной экономика.-М.:Финстатинформ, 1997г.-640 с; Буздалов И.11. Аграрная реформа в России (концепция, опыт, перспективы).-М.,2000. -325с; Чужинов П.И., Петренко И Я Экономика сельскохозяйственного производства. - Алма-ата: Кайнар, 1992г. -560с.

Bitiruv malakaviy ish maqsadi agroservis xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ish vazifalari:

- iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida agroservis xizmat ko`rsatish tizimini rivojlantirishning nazariy asoslarini, o`ziga xos xususiyatlari va zaruriyatini ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tadqiq etish;
- agroservis xizmatlari samaradorligini tavsiflovchi ko`rsatkichlar tizimini va ularni baholash uslubiyatini takomillashtirish bo`yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;
- agroservisni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarini aniqlash va ularning ta'sirini tadqiq etish;
- agroservis tuzilmalari tarkibi va tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo`yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar tayyorlash;
- agroservis tizimining bozor munosabatlariga o`tish bosqichlari, agroservis xizmatlar bozorining tarmoqlar bo`yicha tarkibiy-funktsional tuzilmalari va ularning institutsional asoslarini takomillashtirish bo`yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- agroservisning rivojlanishini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, xorijiy tajribalarni tadqiq etish va ularning respublikamiz mintaqalari sharoitiga mos yo`nalishlaridan samarali foydalanish bo`yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- chorvachilikda agroservisni modernizatsiyalash modelini ishlab chiqish va uni joriy etish mexanizmlari bo`yicha ilmiy-amaliy takliflar tayyorlash.

Bitiruv malakaviy ish ob'ekti sifatida O`zbekiston Respublikasi agrar tarmoq tizimiga xizmat ko`rsatuvchi agroservis tuzilmalari majmuasi tanlandi.

Bitiruv malakaviy ish predmeti bo`lib agroservisning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari hamda agroservis korxonalari bilan iqtisodiyotning boshqa subyektlari o`rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ish metodlari. Tadqiqot jarayonida induksiya va

deduktsiya, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik va iqtisodiy tahlil, dinamik qatorlar, ilmiy abstraktsiyalash, monografik, taqqoslash, korrelyatsiya - regressiya, ekspert baholash va SWOT tahlili, bashoratlash usullaridan foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish tarkiban kirish, ikkita bob, 6 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbliji, uning maqsad va vazifalari, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, predmeti va obyekti, uning uslubiy va nazariy asoslari, hajmi, tarkibi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Birinchi bob “Qishloq xo`jaligida agroservis xizmatlarining iqtisodiy asoslari” - deb nomlanadi. Bunda O`zbekistonda qishloq xo`jaligida agroservis xizmatlari tuzilmasini shakllanish bosqichlari, agroservis xizmatlari samaradorligini baholash ko`rsatkichlari, qishloq xo`jaligini ekinlarini yetishtirishda hududiy imkoniyatlari va ularni baholash o‘rganilgan.

Ikkinci bob “Qishloq xo`jaligida agroservis xizmatlari bozorining rivojlanish yo`nalishlari” - deb nomlanadi. Bunda O`zbekistonda agroservis xizmatlari bozorining SWOT tahlili, agroservis xizmatlari bozorining samaradorligi, subyektlarini rivojlantirish va xizmatlar samaradorligini oshirish istiqbollari tavsiya etilgan.

I - BOB. QISHLOQ XO`JALIGIDA AGROSERVIS XIZMATLARINING

IQTISODIY ASOSLARI

1.1. O`zbekistonda qishloq xo`jaligida agroservis xizmatlari tuzilmasini shakllanish bosqichlari

Mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab respublikamizda real tarmoqlarni tarkibiy qayta shakllantirish va rivojlantirish bilan bir qatorda ularga turli xizmatlar ko`rsatuvchi tuzilmaparni tashkil etish, ularning faoliyatini diversifikatsiyalash, eng muhimi esa iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmatlar hajmi, sifati va samaradorligini oshirish bilan bog`liq strategik ahamiyatga molik vazifalarni hal etishga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda va bu, bizningcha, to`g`ri yondashishdir.

Xususan, mamlakatimizning asosiy real tarmoqlaridan biri bo`lgan qishloq xo`jaligining kelgusi taraqqiyotini belgilovchi muhim sohalardan hisoblangan agroservis tizimini bozor munosabatlari talablariga mos rivojlantirish, agrar xo`jalik yuritish subyektlariga ko`rsatiladigan xizmatlar majmuasi samaradorligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida hal etilmoqda.

Bu esa o`z navbatida hozirgi paytda asosiy, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan xo`jalik yuritish subyektlari sifatida tan olingan fermer va dehqon xo`jaliklariga agroservis xizmati ko`rsatish orqali qishloq xo`jaligida arzon va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko`paytirish va samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Zero, bozor munosabatlari rivojlangan va tatbiq etilgan sari ishlab chiqarish subyektlari ehtiyojlaridan kelib chiqib, agroservis xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirishning talab etilishi tabiiy holdir.

YUqorida asoslab berilgan strategik maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, birinchi navbatda gnoseologik nuqtai nazardan, ya'ni, bilish nazariyasi doirasida «agroservis» atamasining dialektik asoslari, xususan, uning mazmun-mohiyati, shakllanish jihat va yo`nalishlari, xususiyatlari, o`rni va ahamiyatining ilmiy-nazariy qirralarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, «agroservis xizmatlari», «agroservis xizmatlari bozori» tushunchalariga

takomillashgan mualliflik ta'rfi berilib, bunda ularning alohidalik tamoyilidan tashqari, o`zaro aloqadorlik, bog`liqlik, uyg`unlik va to`ldiruvchanlik tamoyillari asosida rivojlanish qonuniyat va xususiyatlari ohib berildi.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko`rsatish deyilganda - insonlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish subyektlarida yuzaga keladigan, o`z iste'mol ehtiyojlarini qondirishga yo`naltirgan va daromad olishga qaratilgan harakatlar majmuini ifodalovchi faoliyat tushuniladi. Servis esa zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish soha va subyektlarida insonlarning yuzaga keladigan iste'mol talablarini ta'minlash maqsadida ko`rsatiladigan turli xil xizmatlar majmuini ifodalovchi tushunchadir.

Binobarin, xizmat ko`rsatish va servis bir biriga chambarchas bog`liq va insonlarning iste'mol ehtiyojlarini qondirish uchun jamiyat va turmushda sodir bo`ladigan muayyan maqsadlarga yo`naltiriladigan faoliyatlar majmuasidan iboratdir. Lekin, shu o`rinda ta'kiddash lozimki, insonlarning iste'mol ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan har qanday faoliyat aksariyat hollarda xo`jalik subyektlari tizimi va doirasida amalga oshiriladi. SHu sababdan, ya'ni, xo`jalik yuritish subyektlari faoliyatini samarali tashkil qilish va rivojlantirish nuqtai nazardan, «servis xizmati ko`rsatish» atamasi va tushunchasini iqtisodiy muomala jarayoniga kiritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

U holda servis xizmati ko`rsatish tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: servis xizmati ko`rsatish insonlarning zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish subyektlarida bir biriga bog`liq ravishda yuzaga keladigan iste'mol ehtiyojlarini o`zaro hamkorlik va uyg`unlik asosida qondirishga qaratilgan daromad keltiruvchi harakat va maqsaddar majmuasini ifodalovchi o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lgan faoliyat turidir. Agroservis xizmatlari esa bu bozor iqtisodieti sharoitida agrar soha tizimida qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, shu jarayonda zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan holda iste'molchilar talab va takliflarini o`zaro uyg`unlikda shakllantiruvchi hamda uni amalga oshirish

davrida daromad keltirishga yo`naltirilgan maqsadga muvofiq faoliyatlar majmuidir.

YUqoridagi ilmiy-nazariy ta'rif va fikr-mulohazalarga asoslangan holda tadqiqot jarayonida agroservis xizmatlari samaradorligini baholash me'zon va ko`rsatkichlarini tizimlash muammolarini o`rganishga alohida o`rin berildi. Fikrimizcha, agroservis xizmatlari samaradorligining eng muhim mezonlaridan biri bu agrar sohada agroservis xizmatlari iste'molchilari talabining agroservis subyektlari xizmatlari taklifi bilan qondirilish darajasi tariqasida ifodalash maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, mavjud agroservis xizmatlarga bo`lgan talabni ($\sum Ad$) quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\sum Ad = \sum Ed - (Fas + Ias + Aas) \quad (1)$$

Bu yerda: $\sum Ad$ - hudud bo`yicha agroservis xizmati subektlariga bo`lgan qo`shimcha talab, ming so`m;

$\sum Ed$ - agroservis xizmatlariga bo`lgan me'yor asosidagi jami talab, ming so`m;

Fas - qishloq xo`jalik korxonalarini tomonidan agroservis xizmatlarini o`zi ta'minlash imkoniyati, ming so`m;

Ias - shu hududdagi boshqa korxona, tashkilot (subyekt)lar tomonidan agroservis xizmatlarini ta'minlash imkoniyati, ming so`m;

Aas - agroservis korxonalarini tomonidan servis xizmatlarini bajarish imkoniyati, ming so`m.

SHuningdek, ushbu yo`nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan iqtisodchi olimlarning uslubiy yondashishlarini hisobga olgan holda ishda agroservis xizmatlari samaradorligini aniqlash usullari tadqiq etildi. Bizning fikrimizcha ham, agroservis xizmatlari samaradorligi ko`rsatkichini qishloq xo`jaligida ko`rsatilgan xizmatlardan olingan daromadni shu xizmatlar uchun qilingan xarajatlarga nisbati orqali mutloq yoki nisbiy ko`rsatkichlarda aniqlash maqsadga muvofiqdir. YA'ni, bunda bir so`mlik xarajat evaziga olingan daromad summasi (so`m/so`m)

ko`rinishida yoki ushbu ko`rsatkichni 100 ga ko`paytirib, uni foizda ifodalash mumkin. Har ikkala holat uchun ham quyidagi formula ishlataladi:

$$CAX = \frac{\sum D}{\sum X} = \frac{DAX + DQX + DEX}{SMX + SUX} \quad (2)$$

Bu yerda: *SAX*- agroservis xizmatlari samaradorligi, so`m/so`m yoki %da:

$\sum D$ - agroservis xizmatlaridan olingan jami daromad, ming so`m;

$\sum X$ - agroservis xizmatlari uchun jami xarajatlar, ming so`m;

DAX - asosiy ko`zlangan xizmatdan kelgan daromad, so`m;

DQX - qo`shimcha qilingan xizmatdan kelgan daromad, so`m;

DEX - ehtiyoj asosida alohida xizmatdan olingan daromad, so`m;

SMX - xizmat ko`rsatish bilan bog`liq doimiy xarajatlar (sarflar), so`m;

SUX - xizmat ko`rsatishdagi o`zgaruvchan xarajatlar (sarflar), so`m.

Biroq, bugungi kunda, bitiruv malakaviy ishda ta'kidlab o`tilganidek, qishloq xo`jaligida faoliyat yurituvchi subyektlar sonini o`zgarib turganligi va ular yer maydonlari o`lchamining maqbullashtirilayotganligi, shuningdek, aksariyat fermer va dehqon xo`jaliklarida hisob-kitob ishlari va hisobotning yaxshi yo`lga qo`yilmaganligi ham o`z navbatida agroservis xizmatlarini baholash ishlarini murakkablashtirib, qolaversa, xo`jalik yuritish shakllarining o`ziga xos jihatlari iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari tizimidan birdek foydalanish mumkin emasligini asoslab bermoqda.

SHu bilan birga, agroservis xizmatlari samaradorligini uslubiy jihatdan baholashda agroservis xizmatlarining har bir turi bo`yicha alohida ko`rsatkichlarni bir tizimga keltirish xizmatlar samaradorligini ob'ekgiv baholash imkonini beradi,

1.2. Agroservis xizmatlari samaradorligini baholash ko`rsatkichlari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida bozor mexanizmlariniig keng joriy qilinishi ular faoliyati samaradorligini aniqlash masalasiga ham yangicha yondashishni talab etmoqda. SHu nuqtai nazardan agroservis xizmatlarini baholash masalasi bo`yicha bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan e'tiborga molik tadqiqotlarni e'tirof etish o`rinlidir. Ular alohida xizmat turlari samaradorligini aniqlash bo`yicha mustaqil izlanishlar olib borgan va o`ziga xos muhim natijalar olganlar. Biroq, kompleks qamrab oluvchi tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi bois mazkur izlanish doirasida agroservis xizmatlari samaradorligini baholash ko`rsatkichlari bir tizimga keltirildi (1.2.1-jadval).

Bizningcha, agroservis xizmatlari samaradorligini ularning qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi xissasini hisobga olgan holda baholashni ilmiy yondashish nuqtai nazardan to`g`ri, deb hisoblash mumkin. Zero, baholash natijalari qishloq xo`jalik korxonalarining agroservis korxonalari tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar natijasida qay darajada iqtisodiy samaradorlikka erishishini real aks ettirishi lozim. SHu boisdan olib qaraganda, agroservis korxonalari faoliyati samaradorligini dinamik (yillar bo`yicha) va intensivlik (xizmatlar samarasи) darajasini ifodalovchi ko`rsatkichlarda baholash maqsadga muvofiq.

Agroservis xizmatlari narxlarining to`xtovsiz o`sib borishi sharoitida ularni baholashda, ayniqsa, yillar bo`yicha tahlil qilinganda, haqqoniy holatni aks ettirishda mutloq va nisbiy miqdor ko`rsatkichlaridan foydalanish bilan bir qatorda tegishli aniqliklar kiritish asosida qiymat ko`rsatkichlaridan foydalanish orqali tejamkorlik nuqtai nazardan bir qator muhim tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlar belgilash va ularni oqilona amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. SHu boisdan ham, bizning fikrimizcha, respublikamiz qishloq xo`jaligida ko`rsatilayotgan agroservis xizmatlari samaradorligining umumlashtiruvchi ko`rsatkichi sifatida xizmat ko`rsatish jarayonida erishilgan rentabellik darajasini qabul qilish o`rinlidir.

1.2.1-jadval

Agroservis xizmatlari samaradorligini baholovchi ko`rsatkichlar va ularni hisoblash tartibi⁴

№	Ko`rsatkichlar	Hisoblash tartibi	Izoh
1.	Resurslardan foydalanish koeffitsenti	$K_{pc} = \frac{\sum ACX}{Pi}$	$\sum ACX$ - ko`rsatilgan i -arpocepvis xizmatlar miqdori Pi - resurs turi (xodimlar soni, texnika, yer maydoni va xk.)
2.	Vaqtdan foydalanish koeffitsenti	$K_t = \frac{\sum ACX}{\sum T}$	$\sum T$ - i xizmat turini bajarishga sarflangan vaqt (ish/kuni, odam soni va xk.)
3.	Agroservis xizmati ko`lami koeffitsenti	$K_{acx} = \frac{\sum ACX}{Mi}$	Mi - i mahsulot miqdori (soni, qiymati, i hajmi va x.k.)
4.	Agroservis xizmat ko`rsatish samaradorligi	$CAX = \frac{\sum D}{\sum X}$	$\sum D$ - agroservis xizmatlaridan olingan jami daromad. $\sum X$ - agroser xizmatlar uchun jami xarajatlar
		$\Delta m = (Macx - M)$	$Masx$ - agroservis xizmat ko`rsatgandan keyingi mahsulot ko`lami Mi - agroservis xizmati ko`rsatmaguncha bo`lgan mahsulot ko`lami Δm - ASXni ko`rsatish evaziga yaratilgan qo`shimcha qiymat
5.	Agroservis xizmatlari salmog`i (%)	$D_{acx} = \frac{\sum ACXi}{\sum Xi} \cdot 100$	$X ACXi$ - i agroservis xizmatlari uchun sarflangan xarajat $\sum X$ - i xizmat turi uchun jami qilingan xarajat
6.	Agroservis xizmatlari uchun qilingan investitsiyalar ko`lami	$K_{ИИВ} = \frac{\sum IHBi}{\sum ACX}$	$\sum IHBi$ - jami jalb qilingan investitsiya, (so`m) $\sum ACX$ - jami agroservis xizmatlari ko`lami, (so`m)
7.	Agroservis xizmatlari ko`rsatishning muttaqillik darajasi	$K_{M\partial} = \frac{ACX_x}{ACX_{MM}}$	ASX_x - agroservis xizmatini ko`rsatish muddatining xaqiqiy ko`rsatkichi. ASX_{mm} - agroservis xizmati ko`rsatishning me'yoriy muddati

⁴ Manba: ma`lumotlarga asoslangan holda muallif tomonidan tuzilgan.

8.	Agroservis xizmatini ko`rsatuvchi xodimlar tarkibi	$D_{\text{ОЛМ}} = \frac{\sum X_{\text{ХОЛМ}}}{\sum X_{\text{ХХ}}}$	$X_{\text{ХХОЛМ}}$ - олий ма'lumotga ega bo`lgan AXC xizmati ko`rsatayotgan xodimlar $\sum X_{\text{ХХ}}$ - jami agroservisda band bo`lganlar soni
9.	Xizmat ko`rsatish (agroservis xizmati) rentabelligi (%)	$R_x = \frac{\sum F}{\sum X} \cdot 100$	$\sum F$ - agroservis xizmatini ko`rsatish evaziga olingan jami sof foyda

Qishloq xo`jaligida xizmat ko`rsatish rentabelligini aniqlash uchun fermer va dehqon xo`jaliklarida amalga oshirilgan barcha agroservis xizmatlari natijasida olingan sof foydani ko`rsatilgan shu xizmatlar xarajatlari (xizmat ko`rsatish bilan bog`liq doimiy va o`zgaruvchan xarajatlar) summasiga bo`lib, yuzga ko`paytirish kerak, ya'ni:

$$R_x = \frac{\sum F \cdot 100}{\sum x} = \frac{\sum F}{SMX + SUX} \cdot 100 \quad (3)$$

Bu yerda: R_x - xizmat ko`rsatish rentabelligi, %

$\sum F$ - xizmat ko`rsatishdan olingan jami sof foyda, so`m;


SMX - xizmat ko`rsatish bilan bog`liq, doimiy xarajatlar, so`m;

SUX - xizmat ko`rsatish bilan bog`liq o`zgaruvchan xarajatlar, so`m.

Ishda respublikamizda agroservis subyektlarini rivojlantirish va ko`rsatiladigan xizmatlar ko`lamini kengaytirish asosida qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi jarayonida band bo`lganlar sonini maqbullashtirish, ilmiy asoslangan me'yorlarga muvofiq keltirish, bandlik tarkibini o`zgartirish, xizmat ko`rsatish va ta'minot tuzilmalarida band bo`lgan ishchi xodimlar salmog`ini oshirish, shuningdek, qishloq aholisini nisbatan yuqori daromad keltiruvchi agroservis faoliyat turlarida band qilish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Viloyat qishloq xo`jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo`jaliklari egallagan bo`lib, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida jami qishloq xo`jaligi mahsulotlarining 77,4 foizini tashkil qildi (2017 yil yanvar-dekabrida – 72,7 foiz), fermer xo`jaliklari tomonidan qishloq xo`jaligi

mahsulotlarining 21,5 foizi ishlab chiqarilgan (2017 yilda 26,3 foiz), shuningdek qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 1,1 foizi ishlab chiqilgan (2017 yilda 1,0 foiz).



1.2.1.-rasm. Xorazm viloyatida 2019 yil 1 yanvar holatiga hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi⁵

Demak, respublikamiz qishloq xo`jaligini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash va unga xizmat ko`rsatish tizimini bozor munosabatlarig o`tish bosqichlarida belgilangan asosiy vazifalarning bajarilish darajasidan kelib chiqib, bugungi kunda mamlakatimizda agroservis xizmatlari bozori shakllantirilgan degan xulosa qilishga to`liq asos bor, deb hisoblayniz.

Ammo, tadqiqotlar natijalari va amaliyot tajribalari hukumat qarorlari asosida agroservis tizimini diversifikatsiyalash, ya'ni, agroservis xizmatlari iste'molchilari ehtiyojlarini qondira oladigan turli yo`nalishlardagi shoxobchalarni tashkil etish masalasiga yanada chuqurroq va kengroq yondashish lozimligini ko`rsatmoqda. Izlanishlarimizning guvohlik berishicha, qarorlarda belgilangan agroservis shoxobchalarining ayrimlari hozirgacha tashkil qilinmagan. Bunga esa, o`z navbatida, bir qator omillar salbiy ta'sir ko`rsatmoqda, jumladan, tashkil

⁵ Manba: www.xorzmstat.uz. Xorazm viloyat statistikaboshqarmasi Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo`limi

etilayotgan aksariyat agroservis subyektlarida moddiy-texnika bazasining o`ta zaifligi va erkin moliyaviy mablag`larning etishmasligi, ayrim turdag`i shoxobchalarni tashkil etishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi va boshqalar. Bitiruv malakaviy ishda ushbu va boshqa salbiy omillarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo`llari asoslab berilgan.

Respublika qishloq xo`jaligida foydalanilayotgan yerlarning holati, sifati va ulardan foydalanish darjasini qoniqarli emas. Chunki qishloq xo`jaligida sug`oriladigan yerlardan foydalanishda qo`yidagi salbiy holatlar uchraydi:

- yer resurslaridan ilmiy asoslangan holda foydalanish, ayniqsa
- almashlab ekish yo`lga qo`yilmagan;
- salbiy jarayonlarni bartaraf qilish bo`yicha uzoq muddatga mo`ljallangan iqtisodiy - moliyaviy tadbirlar, ishlarni vaqtida va kerakli hajmda bajarish rejalari yo`q;
- zarur qishloq xo`jalik texnikasi etishmasligi sababli ba'zan mavsumiy agrotexnik va yerni tayyorlov tadbirlari belgilangan tartibda bajarilmayapti;
- sug`oriladigan yerlardan foydalanishga xizmat qiluvchi infrastruktura va servis xizmati korxonalarining moliyaviy - iqtisodiy ahvoli qoniqarli emas;
- qishloq xo`jaligiga ko`maklashuvchi infrastruktura tarmoqlari xizmatlari etarli darajada tashkil etilmagan va ularning sifati past;
- yer resurslarining qimmatli tarkibiy qismi bo`lmish sug`oriladigan yerlar ma'lum miqdorlarda asossiz ravishda noqishloq xo`jalik maqsadlari uchun ajratilmoqda.


Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini isloh qilishni diversifikatsiyalash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, zamonaviy yuqori samarali texnologiyalarni joriy etish hamda xo`jaliklarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo`yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, qishloq xo`jaligi yalpi mahsuloti hajmi 2016 yilda 47486,1 mlrd. so`mni tashkil etib, 2000-yilga nisbatan 2,7 martaga o`sishini ta`minladi. Shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari hajmi 29042,4 mlrd. so`mni (2,8 marta), chorvachilik mahsulotlari hajmi 18443,7 mlrd. so`mni (2,6 marta) tashkil etdi. 2010-2016 yillar davomida

jami qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror sur`atlarda o`sib bordi, bunda o`sish sur`ati yiliga 6-7 foizni tashkil etdi (1.2.1-diagramma).

Olib borilayotgan islohotlar natijasida qishloq xo`jaligi yildan-yilga fermer xo`jaliklarining ulushi oshib borayotganligi, o`z navbatida qishloq xo`jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushi esa kamayib borayabdi. Respublikamizda faoliyat yuritib kelayotgan past rentabelli qishloq xo`jaligi tashkilotlari yer maydonlarini qisqartirilib, ular negizida mustahkam moddiy texnika bazasiga ega bo`lgan ko`p tarmoqli fermer xo`jaliklarining tashkil etilishi, jami qishloq xo`jaligi yalpi mahsulotida fermer xo`jaliklari ulushining 2000-yildagi 5,5 foizdan 2016 yilda 32,9 foizgacha ko`payishida hamda qishloq xo`jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushini esa 2000-yildagi 27,8 foizdan 2016 yilda 2,0 foizgacha kamayishida o`z ifodasini topdi (1.2.2-rasm).

1.2.1-diagramma

Qishloq xo`jaligi yalpi mahsulotining 2000-2016yillardagi o`sish sur`ati⁶




2013-2017 yillar davrida “Sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish” to’g’risida Davlat dasturiga muvofiq: kuchli va o‘rtacha sho‘rlangan maydonlar 149,4 ming getktarga kamaydi,

⁶ www.stat.uz-O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasining rasmiy sayti.

sizot suvlar sathi yer yuzasiga yaqin (2 metrgacha) joylashgan maydonlar 302,9 ming gektarga qisqardi, 897 ming gektardan ko‘proq maydonning meliorativ holatini saqlash chora-tadbirlari amalga oshirildi, sug‘oriladigan 1,3 million gektardan ko‘proq yerlarning suv ta’minoti yaxshilandi.

2016 yil yanvar-dekabr



1.2.2.-rasm. Qishloq xo`jaligi yalpi mahsulotining xo`jaliklar toifalari bo`yicha taqsimlanishi⁷

Islohotlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki 2017 yilning yakunlari bo‘yicha jami 21,4 mln. tonna (2016 yilga nisbatan 101,5 foizga) shundan, 11,4 mln. tonna (101,4 foizga) sabzavot, 2,1 mln. tonna (12,4 foizga) poliz, 3,0 mln. tonna (101,9 foizga) kartoshka, 3,1 mln. tonna (101,1 foizga) meva va 1,8 mln. tonna (100,8 foizga) uzum etishtirilgan.(1.2.2-diagramma).


Aholi tomorqa va dehqon xo‘jaliklari mavjud imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini va daromadlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 4-martdagи 119-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan 1 milliondan ortiq xonadonlarda yengil konstruksiyali issiqxonalar qurilib, ularga 1,5 mln. Donaga

⁷ www.stat.uz-O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasining rasmiy sayti.

yaqin limon ko'chatlari ekildi.⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ning 2018 yil 14-yanvardagi "Fermer xo'jaliklarining yer uchastkalaridan yanada samarali foydalanish va qo'shimcha daromad olishni tashkil qilish chora-tadbirlari

1.2.2-diagramma

2017 yilda yetishtirilgan ekinlar ko'rsatkichi



(2016 yilga nisbatan foizda)⁹

to'g'risida"gi 25-sonli qaroriga asosan 2018 yilda g`allachilik va paxtachilik yo`nalishlaridagi fermer xo`jaliklari tomonidan ekin maydonlaridan tashqaridagi qishloq xo`jaligida foydalanilmaydigan yerlarda yengil konstruktsiyali va kam xarajatli dala shiyponlari hamda issiqxonalar qurish, parranda, sog`in sigir hamda asalari boqishni tashkil etish, 2018 yilda fermer xo`jaliklari tomonidan kuzgi boshqoli don ekinlari dala chetlariga ekiladigan qishloq xo`jalik ekinlarini joylashtirish hamda mahsulot ishlab chiqarishning prognoz ko'rsatkichlari tashkil etish belgilandi. Bir oy muddatda suv xo`jaligi tashkilotlari tasarrufidagi barcha yer maydonlarini to`liq xatlovdan o'tkazib, qishloq xo`jaligi ekinlari ekish imkoniyati mavjud bo`lgan yer uchastkalariga eksportbop va oziq-ovqat ekinlarini joylashtirilishini hamda maqbul muddatlarda ekilishi ta'minlandi.¹⁰

⁸ www.lex.uz-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 29-dekabrdagi PQ-2460-sonli qarori.

⁹ www.stat.uz-O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining rasmiy sayti.

¹⁰ www.lex.uz-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 yanvardagi "Fermer xo'jaliklarining

1.3. Agroservis xizmatlari bozorining asosiy segmentlari va yo`nalishlari

Bizning fikrimizcha, agrar tarmoqda agroservisni tashkil etishning asosiy shartlaridan biri bo`lib ushbu tizim ob'ektlarini qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtiruvchilarga yaqin bo`lgan masofada va ular xizmatidan foydalanishga qulay shart-sharoitlarni yaratgan holda joylashtirish va rivojlantirish hisoblanadi. Bu masalaga ham etarli darajada e'tibor qaratilmayotganligi o`z navbatida xizmatlarga bo`lgan talabning oshishi sharoitida ularni o`z vaqtida arzon va sifatli bajarish muammolarini hal etishga jiddiy to`sinq bo`lmoqda. SHuningdek, qishloq xo`jaligining mavsumiylik xususiyati agroservis korxonalarining ham shunga mos ravishda faoliyat yuritishini taqozo etib, ularni tashkil etish jarayonida qishloq xo`jaligining mavsumiylik xarakteri hisobga olinishi va har bir mavsumiy tadbirlarning agroservis xizmatlariga bo`lgan talabi to`liq bajarilishi lozim. Agroservis xizmatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi barcha omillar ichida tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda, tabiiy omillarni alohida hisobga olish maqsadga muvofiq (2-rasm).

Bitiruv malakaviy ishida yuqoridagi omillarning tavsif va xususiyatlari ochib berilgan. Jumladan, bozor munosabatlari sharoitida agroservis xizmatlari iqtisodiy kategoriya sifatida o`zining bir qator xususiyatlariga ega va ular, bizningcha, quyidagilardan iborat:

- qishloq xo`jaligida fermer va dehqon xo`jaliklarini faqatgina ishlab chiqarish faoliyati bilan shug`ullanishlariga imkon beradi va servis xizmati ko`rsatish vazifalaridan ozod etadi;

- agroservis subyektlari bevosita moddiy ne'matlar yaratmasada, ammo ular faoliyatini rivojlantirishga mablag` sarflagan subyektlarga ham, ular xizmatidan foydalangan xo`jaliklariga ham qo`shimcha daromad olish imkonini yaratadi;

- qishloq xo`jaligida mehnat unumdorligini oshiradi, mehnat taqsimotini maqbullashtirib, qishloq aholisini ish bilan bandlik muammosini hal etishga yordam beradi.

er uchastkalaridan yanada samarali foydalanish va qo`shimcha daromad olishni tashkil qilish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 25-sonli qarori

Ammo, respublikamizdagi agroservis xizmatlari bozori (AXB) ishtirokchilaridan hisoblangan agroservis subyektlari faoliyatida ayrim muammo va kamchiliklar ham mavjudligini ta'kidlash lozim, jumladan:

- fermer xo`jaliklari va ularga xizmat ko`rsatuvchi agroservis subyektlari o`rtasida huquqiy, tashkiliy hamda iqtisodiy munosabat va mexanizmlarning etarli darajada shakllanmaganligi natijasida o`zaro shartnomaviy hisob-kitoblar va majburiyatlarning o`z vaqtida, to`liq bajarilmayotligining salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi;

- moddiy resurslar ta'minoti, texnika va bank xizmatlari ko`rsatuvchi infratuzilmalarining monopol mavqega ega ekanliklari va bu borada raqobat muhiti shakllanmaganligi natijasida ular tomonidan fermer xo`jaliklariga etkazib berilayotgan moddiy resurslar hamda ko`rsatilayotgan xizmatlar narxlarining o'sish tendentsiyasi mavjudligi;

- davlat ehtiyoji uchun etishtirilayotgan mahsulotlar bo`yicha ajratilayotgan imtiyozli kreditlar miqdorining pastligi va bunda Qoraqalpog`iston Respublikasi va boshqa mintaqalar sharoiti hisobga olinmayotganligi va tijorat banklari xizmatlarining talab darajasida emasligi;

- qishloq hududdarida yangi xizmat ko`rsatishga ixtisoslashgan agroservis subyektlari shoxobchalarining etishmasligi va mavjudlarining ish faoliyati samaradorligining pastligi va boshqalardan iborat.

Agroservis xizmatlari, bir tomonidan qishloq xo`jaligi subyektlarining yuqori samarali ishlashini tashkil etib, moliyaviy xo`jalik faoliyatining rentabellik darajasini oshirishi, ikkinchi tomondan esa, o`sib borayotgan qishloq aholisini ish bilan ta'minlash manbalaridan biri sifatida rivojlanishi, demak, AXBi asosiy segmentlari va iqtisodiy munosabatlarining o`zaro aloqadorligini aniqlash lozim.

Bu munosabatlar xizmatni iste'mol qiluvchilar bilan agroservis xizmatini amalga oshiruvchilar o`rtasida tovarlar (mahsulotlar, xizmatlar), pul, mehnat resurslari, axborotlar harakatini ta'minlashda vujudga keladigan munosabatlar bo`lib, qishloq xo`jaligining iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan mutanosib faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining Vazirlar Mahkamasining 2013 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan majlisidagi ma'ruzasida zamonaviy, raqobatbardosh va diversifikatsiyalashtirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga yo`naltirilgan islohotlar natijasida 2013 yilda yurtimizda iqtisodiy rivojlanishning barqaror yuqori sur'atlari, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiyotni modernizatsiyalash ta'minlangani e'tirof etildi.

Ta'kidlash joizki, barcha sohalar qatori qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni har tomonlama qo`llab-quvvatlash va modernizatsiyalash yuzasidan ko`rilayotgan chora-tadbirlar bois sohada keng ko`lamli o`zgarishlar va sifat jihatidan yangilanishlar yuz bermoqda.

Ammo so`nggi paytlarda iqtisodiy maqsad, manfaatlar yer fondi tuzilmasini tobora o`zgartirib yubormoqda. Xususan, bir tomondan foydalanish uchun yaroqli bo`lgan yerlarni kengaytirishga harakat qilinayotgan bo`lsa, ikkinchi tomondan yerdan samarali foydalanmaslik natijasida uning buzilishi va eroziya jarayonlari kuchaymoqda. Hisob-kitoblarga ko`ra, yiliga o`rtacha 6-7 million hektar maydonlar eroziya jarayonlari bois qishloq xo`jaligida foydalanishga yaroqsiz holga kelmoqda. Bundan tashqari, sanoat va transport infratuzilmasi sohasida amalga oshirilayotgan qurilishlar, yer osti boyliklarini qazib olish jarayonida hosil bo`layotgan karer va tuproq uyumlari jadal sur'atlar bilan qishloq xo`jaligi ekin yerlarini qisqartirmoqda. SHundan kelib chiqib, yer muammolariga dunyo hamjamiyatining e'tiborini qaratish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 2009 yildan 22 aprel kunini Xalqaro Ona-Yer kuni deb e'lon qildi.

E'tirof etish joizki, yurtimizda qishloq xo`jaligini rivojlantirishning istiqbollari belgilanayotganida, avvalo, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bugungi kunda qishloq xo`jaligini intensiv asosda rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, seleksiya ishlarini chuqurlashtirish, yuksak zamonaviy

agrotexnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilib, suvdan oqilona foydalanilmoqda.

Sobiq tuzum davrida yuzaga kelgan murakkab ekologik muammolarni bartaraf etish uchun mamlakatimizda tabiatdan foydalanishning ma'muriy-buyruqbozlik o'rniga iqtisodiy boshqarish usuliga bosqichma-bosqich o'tilmoqda. Bu borada, avvalo, sohaning huquqiy asoslari mustahkamlandi. Xususan, 1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muxofaza qilish to`g`risida"gi Qonuni tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab berdi. Mazkur huquqiy xujjat tabiatni muxofaza qilish sohasidagi kompleks xarakterdagi birinchi Qonun bo`lib, inson va tabiat o`rtasidagi munosabatlар uyg`un muvozanatda rivojlanishini, ekologik tizimlar, tabiat komplekslari va ayrim ob'ektlar muxofaza qilinishini, fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo`lish huquqini kafolatlashga qaratilgan.

Mustaqil O`zbekiston mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish va ayniqsa, Orol fojeasini yumshatish maqsadida keng ko`lamdagi sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. Jumladan, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish va suv resurslaridan foydalanishning xavza printsipiga o`tildi. Suvdan foydalanishda tejamkor texnologiyalar keng joriy etilib, qatiy normalar belgilandi. Bu sohadagi huquqiy baza muntazam takomillashtirib borilmoqda. Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, Amudaryo deltasida lokal xovuzlarni yaratish, muxofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish va mustahkamlash bo`yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktabrdagi Farmoniga muvofiq, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligini ko`paytirishga e'tibor qaratilmoqda. SHuningdek, melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzurida sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi tashkil etildi.

"2008-2012 yillar davrida sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash" Davlat dasturi hamda "2013-2017 yillar davrida sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish" Davlat dasturi ishlab chiqilib, qabul qilindi. Mazkur dasturlarda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2018 yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1,5 million hektar sug`oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yer osti suvlari yuqori bo`lgan maydonlar qariyb 10 foizga yoki 415 ming hektarga qisqardi, kuchli va o`rtacha sho`rlangan maydonlar 113 ming hektarga kamaydi.

II - BOB. QISHLOQ XO`JALIGIDA AGROSERVIS XIZMATLARI

BOZORINING RIVOJLANISH YO`NALISHLARI

2.1. O`zbekistonda agroservis xizmatlari bozorining SWOT tahlili

Respublikada agroservis xizmatlari bozorining o`ziga xos muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- respublikamizda agroservis xizmatlari bozori to`yinmagan bozorlar sirasiga kirishligi (ya'ni, xizmatlarga bo`lgan ehtiyoj etarlicha qondirilmaydi);
- agroservis xizmatlar bozori tarmoq xususiyatiga ega (faqat bir tarmoq qishloq xo`jalik tarmog`ida amal qilishi) ekanligi;
- agroservis xizmatlar bozorida vaqtning davriyiligi (qishda amal qilmaydi), tabiiy iqlim sharoitiga bog`langanligi;
- agroservis xizmatlar bozori alohida olingan bozor ekanligi, huquqiy institutsional asoslari va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi, texnika-texnologiyani rivojlangan darajasiga bog`liqligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublikamizda faoliyat yuritayotgan agroservis xizmatlari bozorini rivojlantirishining SWOT tahlili o`tkazildi (2.1.1-jadval).

Mazkur SWOT tahlil agroservis xizmatlari bozorini respublikamizdagи keyingi taraqqiyotini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo`jaligida agroservis xizmat ko`rsatish tizimini bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o`tkazish zaruriyati quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

-mamlakat bo`yicha, ayniqla, qishloq hududlarida agroservis xizmat ko`rsatish shoxobchalarining rivojlanish darajasi ular xizmatidan foydalanuvchi xo`jalik subyektlarining rivojlanishidan orqada ekanligi. Agroservis xizmat ko`rsatish shoxobchalari rivojlanishining dastlabki davridagi moliyaviy qiyinchiliklar, fermer va dehqon xo`jaliklari to`lov kobliiyatining nisbatan pastliga, malakali kadrlar bilan etarli darajada ta'minlanmaganligi ularning jadallik bilan rivojlanishiga to`sinqinlik qilayotganligi;

-respublika qishloq xo`jaligidagi agroservis xizmat ko`rsatish tizimida to`laqonli raqobat muhitining yuzaga kelmaganligi. Bugungi kunda xizmat

ko`rsatish korxonalariga raqobatchi bo`lgan xususiy, aktsiyadorlik yoki boshqa shakldagi korxonalarini rivojlantirish uchun alohida imtiyozli sharoitlar yaratishning zarurligi, ularni rivojlantirish uchun ichki va xorijiy investitsiyalarni jalg qilish uchun etarlicha huquqiy va me'yoriy asoslarning yaratilmaganligi;

-agroservis korxonalari tomonidan ko`rsatiladigan xizmatlarga bo`lgan talab va taklifning mahsulotlar bozoridagi talab va taklifdan bir muncha farq qilishi, ya'ni xizmat ko`rsatish shoxobchalari tomonidan etkazib beriladigan resurslar va xizmatlarga bo`lgan talabning yil davomida o`zgarib turishi.

2.1.1-jadval

Respublikada agroservis xizmatlari bozorini rivojlantirishning SWOT

tahlili¹¹

<ul style="list-style-type: none"> – davlat dasturlarining mavjudligi va ularning agroservis xizmatlarini rivojlantirishga mos ekanligi; – agroservis xizmatlarini rivojlantirish bo`yicha bank, moliya, soliq, sug`urta tizimini yaratilganligi; – qishloq xo`jaligida fermer va dehqon xo`jaliklari tomonidan agroservis xizmatlariga talabning yuqoriligi; – qulay tashqi investitsiyalar muhitini barqaror rivojlanish ustuvorligi. 	<ul style="list-style-type: none"> – moliyaviy mablag`lar etashmasligi bo`yicha muammolarning mavjudligi; – agroservis xizmatlari bo`yicha alohida qonunning mavjud emasligi; – agroservis korxonalarda moddiy-texnika bazasining talab darajasida emasligi; – agroservis xizmatlari bozori konyukturasini o`rganish bo`yicha tadqiqotlarning hududlar bo`yicha o`tkazilmaganligi; – sifatli agroservis xizmatlarini amalgashirish uchun malakali kadrlar etishmasligi.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
<ul style="list-style-type: none"> – hukumat tomonidan agroservis xizmatlarining rivojiga e'tibor berilayotganligi; – agroservis xizmatlari bozorida agroservis subyektlarining bozorga tez moslashuvchanligi; – investorlarning fermer va dehqon 	<ul style="list-style-type: none"> – respublikada demografik vaziyatning o`zgaruvchanligi; – respublika hududlari bo`yicha agroservis xizmatlari bozori turli darajada rivojlanganligi; – xizmatlar uchun baholarining o`zgaruvchanligi;

¹¹ Manba: ma`lumotlarga asoslangan holda muallif tomonidan tuzilgan

xo`jaliklariga ko`rsatayotgan servis xizmatlarini rivojlantirish bo`yicha investitsiya qo`yish istagining mavjudligi;	– sifatsiz va o`z vaqtida amalga oshirilmagan xizmatlar natijasida, qishloq xo`jalik mahsulotlari etishtirishdagi yuqotishlar;
– fermer va dehqon xo`jaliklari hamda agroservis subyektlar o`rtasida tizimli shartnomaviy aloqalarning mavjudligi;	– agroservis xizmatlar bozorida yangi xususiy raqobatchilarni chuqur o`rganilmaganligi;
– qishloq aholisi uchun qo`shimcha ish o`rinlari, daromadini oshirish imkoniyatining mavjudligi.	– turli kutilmagan o`zgarishlar va favqulodda holatlarning paydo bo`lish mumkinligi.


2.2. Agroservis xizmatlari bozorining samaradorligi

Biroq, shu o`rinda alohida ta'kidlash lozimki, keyingi bosqichlar bo`yicha asoslab berilgan yo`nalish va vazifalarni amalga oshirishning muhimlik darajasini baholash qishloq xo`jaligi subyektlariga ko`rsatilayotgan agroservis xizmatlarining samaradorligini ilmiy-amaliy jihatdan to`g`ri aniqlashga chambarchas bog`liqdir. Chunki, bu ikki vazifani bir biriga ta'siri doirasida o`rganish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda, ko`rsatilayotgan agroservis xizmatlarining respublika miqyosida dehqonchilik mahsulotlari (shu o`rinda paxta va don) ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri taqqoslash usuli yordamida o`rganildi.

Juladan, dehqonchilik mahsulotlari bozorining to`yinishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda respublika qishloq xo`jaligida dehqonchilik mahsulotlari va agroservis xizmatlari bozorlarini rivojlantirishning juda katta ichki imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, dissertatsiyada dehqonchilik mahsulotlariga bo`lgan talab va taklif asosida dehqonchilik agroservis xizmatlari bozorining segmentlarini shakllantirishning asosiy yunalishlari ilmiy asoslab berilgan.

Respublikamizda dehqonchilikni rivojlantirish, bozordagi o`zgaruvchan talab va taklif asosida sifatli mahsulot etishtirishni tashkil etish, fermer va dehqon xo`jaliklariga xizmat ko`rsatuvchi agroservis xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning ahamiyati va samarasini inobatta olib, bizning fikrimizcha, undagi mavjud agroservis xizmatlari turlarini ixtisoslik yo`nalishlari va xususiyatlari bo`yicha texnik xizmat ko`rsatish, resurslar ta'minoti, moliyaviy

mablag`lar va iqtisodiy axborotlar ta'minoti bo`yicha turkumlash maqsadga muvofiqdir.



2.2.1-rasm. Xorazm viloyatida qishloq xo'jalik maxsulotlarining hududlar kesimida xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi¹²

Ammo, tahlillar asosida shunday xulosaga kelindiki, umuman olganda viloyatda agroservis xizmatlari ko`rsatish samaradorligi o'sish tendentsiyasiga ega bo`lishiga karamasdan, bugungi kunda tashkiliy tadbirlarga etarlichcha e'tibor berish orqali uning darajasini yanada ko`tarish imkoniyatlari mavjud. Shu boisdan ham, bugungi kunda muqobil MTPlarining servis xizmatini oqilona tashkil qilish,

¹² Manba: www.xorzmstat.uz. Xorazm viloyat statistikaboshqarmasi Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo`limi

qolaversa, agrotexnika tadbirlarini bajarishni mexanizatsiya vositalari zimmasiga yuklash orqali qishloq xo`jaligida mehnat unumдорligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini tubdan o`zgartirish lozim bo`ladi.

Bitiruv malakaviy ishda respublikamiz hududida shakllantirilgan. agroservis tuzilmalarining qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda yaxlit samarali tizim ekanligi klaster yondashuvi asosida ilmiy asoslab berilgan.

Bizning fikrimizcha, taklif etilayotgan klaster tuzilishi dehqonchilikda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- agroservis xizmatlari bozorida dehqonchilikdagi barcha resurslar (iqtisodiy, moliyaviy, intellektual va b.lar)ni jalb qilish va barcha omillardan foydalanish imkoniyatini ochib beradi;

- agroservis subyektlari, ular xizmatlarining iste'molchilari hamda nazorat qiluvchi tashkilotlar o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarni samarali faoliyatining muvofiqligini ta'minlaydi;

- davlat tomonidan agroservis xizmatlarini rivojlantirish bo`yicha aniq mexanizmlarni yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi;

- agroservis subyektlarini xizmat ko`rsatish natijalaridan manfaatdorligini oshirishni hamda uni yaxlit bir tizim shaklida uzlucksiz va samarali rivojlantirish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishda chorvachilik sohasiga tegishli agroservis subyektlari va ko`rsatilayotgan xizmatlarning hozirgi holatini tadqiq etish hamda ushbu yo`nalishda ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqishga muhim o`rin ajratildi. Zero, respublika aholisining o`sishi o`z navbatida chorvachilik mahsulotlariga bo`lgan talabning ko`payishiga olib kelishi tabiiydir. Bu esa respublikada chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko`paytirish omillaridan bo`lgan agroservis xizmatlar tizimini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlariiii jadallashtirishni talab kiladi. Chunki, mutaxassislarning hisoblariga ko`ra, «chorvachilikdagi samaradorlikni atigi 1 % ga oshirish mamlakat bo`yicha

o`rtacha 35-40 ming tonna sut, 5-8 ming tonna go`sht, 12,5-15,5 million dona tuxumni qo`shimcha ravishda olish imkonini beradi.»¹³

2018 yil yanvar-dekabr oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulot (ko`rsatilgan xizmat)lar umumiyligi hajmi 6453,9 mlrd. so`mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 108,5 foizni, jumladan, fermer xo`jaliklarida 203,0 mlrd. so`mni (93,6 foiz), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo`jaliklarida 6144,7 mlrd. so`mni (108,6 foiz), qishloq xo`jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 106,2 mlrd. so`mni (142,2 foiz) tashkil qildi (2.2.2-rasm).




2.2.2.-rasm. Shahar va tumanlar kesimida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo`jaliklari toifalari bo`yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)¹⁴

¹³Хусанов Р.Х-, Додобоев Ю.Т., Додобоев Д.Ю. Агросаноат комплекси иқтисодиёти - Т.: 2003 -Б.740.

¹⁴ Manba: www.xorzmstat.uz. Xorazm viloyat statistikaboshqarmasi Qishloq xo`jaligi va ekologiya statistikasi bo`limi

2019 yilning 1 yanvar holatiga o`tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 100,6 foizni (jami 909,6 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 103,9 foizni (343,9 ming bosh), qoy va echkilar 102,1 foizni (423,9 ming bosh), otlar 102,7 foizni (5,6 ming bosh), parrandalar 107,3 foizni (5301,7 ming boshga) tashkil qildi (2.2.3-rasm).



2.2.3-rasm. 2019 yil 1 yanvar holatiga chorva mollari va parrandalar bosh sonlarining xo`jaliklar toifalari boyicha taqsimlanishi¹⁵

Xorazm viloyatida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish, chorva mollarini ilmiy asoslangan ratsionlar asosida parvarishlash uchun eng muhim hisoblangan yem-xashak (ozuqa) ishlab chiqarish hajmini ko`paytirish, buning uchun ekinlar almashlab ekish tizimlariga qat'iy rioya etish hamda veterinariya sohalari bo`yicha tezkor xizmatlarga ko`proq ehtiyoj sezilmoqda.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan chorvachilik mahsulotlari etishtirish va ular uchun servis xizmatlari ko`rsatishni hisobga olgan holda respublika chorvachilik agroservis xizmatlari bozorini quyidagicha tashkil qilish maqsadga muvofiq.

¹⁵ Manba: www.xorzmstat.uz. Xorazm viloyat statistikaboshqarmasi Qishloq xo`jaligi va ekologiya statistikasi bo`limi

Bizning ta'rifimizga ko`ra, chorvachilik agroservis xizmatlari bozori bu iqtisodiy erkin bo`lgan hamda bozorning asosiy subyektlari hisoblangan chorva mahsulotlarini sotuvchilar (dehqon, fermer va boshqa qishloq xo`jalik yuritish subyektlari), agroservis xizmatlarini amalga oshiruvchilar (chorvachilik agroservis subyektlari) va xaridorlar o`rtasidagi tovar va xizmatlar yuzasidan iqtisodiy ayirboshlash munosabatlarini shakllantiruvchi va muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarni ifodalovchi va qamrab oluvchi yaxlit tizimdir.

Respublika milliy bozorining muhim tarkibiy kismi hisoblangan ushbu bozorning o`ziga xos muhim tomonlari mavjud bo`lib, ular dissertatsiyada har tomonlama asoslab berilgan. Ammo, ilmiy-amaliy izlanishlarimiz natijalarining guvohlik berishicha, respublika chorvachilik agroservis xizmatlari bozori bugungi kunda bir qator muammoli vaziyatlar tasirida sust rivojlanmoqda. Bizning fikrimizcha, chorvachilik agroservis xizmatlari bozorini rivojlantirishga to`sinq bo`layotgan bunday muammolar quyidagilardan iborat:

- chorva mahsulotlari etishtiruvchi fermer va dehqon xo`jaliklarda moliyaviy mablag`lar etishmasligi;
- chorvachilik mahsulotlari sotishdagi tavakkalchilik xavfi (sifatning tez buzilishi);
- xizmat ko`rsatuvchi subyektlar va iste'molchilar o`rtasida o`zaro iqtisodiy aloqalarni tomonlar manfaatlariga mos kelmay kolishi;
- bank kreditlari olish va sug`urtalash tizimidagi muammolar;
- agroservis subyektlari faoliyatida sifatli xizmatni yo`lga kuyish bilan bog`liq tashkiliy va iqtisodiy muammolar;
- chorvachilik bozor kon'yunkturasida mijozlar didini o`zgarishi bilan bog`liq noaniqliklar.

Bitiruv malakaviy ishda ushbu muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etishning ilmiy-amaliy chora-tadbirlarini asoslab berishga keng o`rin berilgan.

2.3. Qishloq xo`jaligini ekinlarini yetishtirishda hududiy imkoniyatlari va ularni baholash

Qishloq xo`jaligini ilmiy asosda hududiy to`g`ri tashkil etish, uning tarkibiy qismlarini mutanosib joylashtirish va rivojlantirish har bir mintaqaning o`ziga hos tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-shoroitlaridan kelib chiqqan holda amalgalashiriladi. Qishloq xo`jaligi iqtisodiyotini oshirishda mehnat resurslari va mutaxassislarining ko`p-ozligiga bog`liqdir. Masalan, o`rtacha 1sentnerdan qishloq xo`jaligi mahsulotini yetishtirishda 1,2 ishchi kuchi sarflansa, kartoshka uchun 2,8, paxta uchun 3,5, qand lavlagi uchun 1,3, poliz ekini uchun 7,1, sut boyligi uchun 9,0, ming dona tuxum uchun 21, sifatli jun uchun 260 ishchi kuchi sarflanadi. Qishloq xo`jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni o`z navbatida sifatli qilib iste`molchilarga yetkazib berishda qulay transport tizimining hissasi beqiyos bo`lsa, tayyor mahsulotlarni aholiga, korxonalarga tarqatishda savdo xodimlarining ham muhim va iqtisodiy ahamiyatga egadir.¹⁶


Xorazm viloyatida 2016 yilning yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan (ko`rsatilgan xizmatlar) umumi hajmi 3034,0 mld. so`mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda ko`rsatilgan xizmatlar hajmi 40,0 mld. so`mni (108,6 foiz), o`rmonchilik xo`jaliklarida 5,1 mld. so`mni (101,9 foiz), baliqchilik xo`jaliklarida 38,4 mld. so`mni (120,5 foiz) tashkil qildi. Bunda dehqon xo`jaligi 64,5 foiz, fermer xo`jaliklari 34,3 foiz, qishloq xo`jaligi faoliyatini amalgalashiruvchi tashkilotlar 1,2 foiz ulushni tashkil etadi.(2.1.1-diagramma).

2016 yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo`jaliklar tomonidan 252295 tonna boshoqli don (112,3 foiz), shundan bug`doy 251187 tonna (112,1 foiz), 128063 tonna kartoshka (111,4 foiz), 634889 tonna sabzavot (116,0 foiz), 144530 tonna poliz (109,1 foiz), 191841 tonna meva (110,7 foiz), 191841 tonna meva (110,7 foiz), 45041 tonna uzum (112,3 foiz) yetishtirildi.

¹⁶ Sh. M . Mirziyoyevning Mamlakatimizni 2016 yilda Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, T., 2017yil, 17 yanvar.

2.3.1-diagramma

Xorazm viloyatining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi¹⁷



2016 yilning 1 yanvar holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 104,7 foizga (jami 863,3 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,0 foizga (323,9 ming bosh), qo‘y va echkilar 101,6 foizga (396,0 ming bosh), otlar 100,0 foizga (5328 bosh), parrandalar 104,9 foizga (5054,8 ming boshni tashkil kildi) o‘sdi. 2016 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda 136,9 ming tonna tirik vaznda go‘sht (o‘tgan yilga nisbatan 106,4 foiz), 922,3 ming tonna sut (106,3 foiz), 386,1 mln. dona tuxum (109,8 foiz), 1281 tonna jun (104,8 foiz), 8,0 ming dona qorako‘l teri (104.8 foiz) yetishtirildi. Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiyligi hajmida ularning ulushi 96,3 foizni, sut ishlab chiqarishda 95,4 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 61,0 foizni tashkil etdi.

Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 92,2 foizni, fermer xo‘jaliklarida esa 7,1 foizni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 92,2 va 7,2 foizni, qo‘y va echkilar 92,4 va 7,3

¹⁷ www.xorazmstat.uz-Xorazm viloyati Statistika qo’mitasi ma’lumotlari.

foizni, otlar 89,5 va 9,4 foizni, parrandalar 60,5 va 21,9 foizni tashkil etdi. 2016 yilning yanvar-dekabrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 136,9 ming tonna go‘sht (2015 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 6,4 foizga ko‘p), 922,3 ming tonna sut (6,3 foizga ko‘p), 386,1 mln. dona tuxum (9,8 foizga ko‘p) ishlab chiqarildi. Fermer xo‘jaliklari. 2016 yilning yanvar-dekabrida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 935,0 mlrd. so‘mni yoki 2015 yilning tegishli davriga nisbatan 115,6 foizni tashkil qildi (2.3.1-jadval).

2.3.1-jadval

Xorazm viloyatining fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i qishloq xo‘jalik mahsulotlari¹⁸

2016 yil yanvar-dekabr holatiga

Nomi	yanvar-dekabr				2015 yanvar- dekabrga nisbatan foiz hisobida	
	2015 yil		2016 yil			
	tonna	ishlab chiqarish umumi hajmidagi ulushi, foizi	tonna	ishlab chiqarish umumi hajmidagi ulushi, foizi		
Kartoshka	23400	20.4	28467	22.2	121.7	
Sabzavot	177500	32.4	207500	32.7	116.9	
Poliz	72000	54.3	78400	54.2	108.9	
Meva va sabzavotlar	96700	55.8	103500	59.6	107.0	
Uzum	13000	32.4	14354	31.9	110.4	
Go’sht, tirik vaznda	4620	3.1	4290	3.1	106.7	
Sut	37250	4.3	39850	4.3	107.0	
Tuxum, ming dona	21500	6.1	23250	6.0	108.1	
Jun, tonna	148	12.1	157	12.3	106.1	
Qorako'l, dona	560	7.3	580	7.2	103.6	
Pilla, tonna	2103.5	96.8	1975.8	90.7	93.9	

Xorazm viloyatini 2017 yilning yanvar-dekabrida hududiy imkoniyatlarini tahlil qiladigan bo’lsak dastlabki ma’lumotlarga ko’ra ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumi hajmi 3780,6 mlrd. so‘mni yoki 2016


¹⁸ www.xorazmstat.uz-Xorazm viloyati Statistika qo’mitasi ma’lumotlari.

yilning shu davriga nisbatan 100,1 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 47,9 mlrd. so'mni 100,1 foiz, o'rmonchilik xo'jaliklarida 3,9 mlrd. so'mni 100,0 foiz, baliqchilik xo'jaliklarida 54,5 mlrd. so'mni 102,6 foizni tashkil qildi.

2.3.2-diagramma


Xorazm viloyatining hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi¹⁹

2017 yilning yanvar-dekabr holatiga



Xususan eng yuqori o'sish sur'atlari Hazorasp 106,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, Urganch tumanlarida esa 105,3 foizni tashkil qildi, Yangibozor 105,1 foizni va Yangiariq tumanlarida esa 104,7 foiz kuzatildi. Gurlan 89,4 foizni, Xiva 93,1 foiz va Shovot 97,2 foiz tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi. 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2016 yilning mos davriga nisbatan 100,1 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 96,4 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 105,1 foizni tashkil qildi.

¹⁹ www.xorazmstat.uz-Xorazm viloyati Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.




2.3.1-chizma. Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)²⁰

Xorazm viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari xo'jaliklari egallagan bo'lib, 2017 yil yanvar-dekabrdagi jami qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 66,9 foizini tashkil qildi (2016 yil yanvar-dekabrdagi – 64,5 foiz), fermer xo'jaliklari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 32,2 foizi ishlab chiqarilgan (2016 yilda 34,3 foiz), shuningdek qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 0,9 foizi ishlab chiqilgan. 2017 yilning Xorazm viloyatda hosil yig'imi yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda tomonidan 259,0 ming tonna boshoqli don ekinlari ishlab chiqarilib, shundan 257,3 ming tonnasi bug'doy tashkil qildi. Bundan tashqari barcha toifadagi xo'jaliklarda 119,2 ming tonna kartoshka qazib olindi bu 2016 yilga nisbatan 93,1 foizga kam, 628,0 ming tonna sabzavot 98,9 foizga kam yig'ib olindi, 136,6 ming tonna poliz ekinlari 94,5 foizga kam, 195,5 ming tonna meva va rezavorlar 101,9 foizga ko'p va 44,8 ming tonna uzum 99,4 foizga ko'p yetishtirildi.


²⁰ www.xorazmstat.uz-Xorazm viloyati Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

2017 yilning yanvar-dekabr holatiga



2.3.2-chizma. Xorazm viloyatining hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish²¹

2017 yilning yanvar-dekabr holatiga




2.3.3-chizma. Xorazm viloyatining hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish²²

²¹ www.stat.uz-Xorazm viloyati Statistika qo'mitasi malumotlari.

²² www.stat.uz-Xorazm viloyati Statistika qo'mitasi malumotlari.

2017 yil yanvar-dekabr holatiga



2.3.4-chizma. Xorazm viloyatining hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish²³

2018 yilning 1 yanvar holatiga chorvachilik o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 104,6 foizga jami 902,8 ming boshni tashkil qildi, shu jumladan sigirlar 107,0 foizga 346,4 ming bosh, qo'y va echkilar 104,4 foizga 413,2 ming bosh, otlar 101,2 foizga 5,4 ming bosh, ko'payib parrandalar 99,5 foizga 5027,1 ming boshga, kamaydi.

2017 yilning yanvar-dekabrdagi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 1181,3 mlrd. so'mni yoki 2016 yilning tegishli davriga nisbatan 88,1 foizni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiyligi hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 32,2 foizni tashkil etdi. 2018 yilning 1 yanvar holatiga fermer xo'jaliklarida 59,2 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 20,6 ming bosh sigir, 41,8 ming bosh qo'y va echkilar, 611,7 ming bosh parrandalar mavjud bo'lib, 2016 yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 96,7 foizni, shu jumladan sigirlar 88,0 foizni, qo'y va echkilar 145,3 foizni, parrandalar 55,2 foizni tashkil qildi.

²³ www.stat.uz-Xorazm viloyati Statistika qo'mitasi malumotlari.

2.3.2-jadval


**Xorazm viloyati fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan
asosiy turdag'i qishloq xo‘jalik mahsulotlari²⁴**

2017 yil yanvar-dekabr holatiga

Nomi	yanvar-dekabr				2016 yanvar- dekabr nisbatan foiz hisobida	
	2016 yil		2017 yil			
	Tonna	ishlab chiqarish umumi hajmidagi ulushi, foizi	tonna	ishlab chiqarish umumi hajmidagi ulushi, foizi		
Boshqoli don	156742	62.1	160587	62.0	102.5	
shu jumladan:						
Bug'doy	155974	62.1	159897	62.1	102.5	
Kartoshka	28467	22.2	15540	13.0	54.6	
Sabzavot	207500	32.7	165319	26.3	79.7	
Poliz	78400	52.2	68167	49.9	86.9	
Meva va rezavorlar	103498	54.0	100120	51.2	96.7	
Uzum	14354	31.9	13061	29.2	91.0	
Go'sht, tirik vaznda	4290	3.1	4508	3.1	105.1	
Sut	39850	4.3	38703	4.0	97.1	
Tuxum, mln.dona	23.3	6.0	22.5	5.5	96.9	
Jun,tonna	157	12.3	53	5.3	33.8	
Qorakol,dona	580	7.2	178	2.5	30.7	
Pilla, tonna	1975.8	90.7	507.4	63.1	25.7	

Xorazm viloyatida 2018 yil yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligida yalpi maxsulot ishlab chiqarish 348,3 mlrd.so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 foizga oshgan. O‘tgan 3 oy yakuni bo‘yicha dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 264,9 mlrd.so‘m bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 5,9 foizga ko‘paygan. Viloyat bo‘yicha dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 3,8 foiz (12.8 mlrd.so‘m)ni, dehqon xo‘jaliklarida 94.1 foiz (315.3 mlrd.so‘m)ni, qishloq xo‘jaligi korxonalarida 2.1 foiz (6.9 mlrd.so‘m)ni tashkil etdi.

²⁴ www.stat.uz-Xorazm viloyati Statistika qo‘mitasi ma’lumoti.



2.3.5-chizma. Xorazm viloyat dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jaliklarining ulushi²⁵

Qishloq xo'jaligida kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot 343,9 mldr.so'm bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 2,0 foizga oshgan yoki jamiga nisbatan kichik biznes sub'ektlarining ulushi 98,7 foizni tashkil etdi. 2018 yilning yanvar-mart holatiga chorvachilik o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 1,0 foizga (jami 856,5 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 0,8 foizga (330,4 ming bosh), qo'y va echkilar 1,3 foizga (401,8 ming bosh), otlar 0,8 foizga (5404 bosh), parrandalar 0,4 foizga (5113,3 ming bosh) ga ko'paydi. 2018 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 305599,4 mln. so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,4 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 87,7 foizni tashkil etdi. 2018 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 32,7 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-martiga nisbatan 100,9 foizga ko'p), 190,9 ming tonna sut (102,4 foizga), 98691 ming dona tuxum (100,4 foizga) ishlab chiqarildi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 29466,8 mln.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 100,6 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari-

²⁵ www.xorazmstat.uz-Xorazm viloyati Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

ning umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 4,1 fozni tashkil qildi. 2018 yilning yanvar - mart oylarida 921 tonna (101,2 foiz) sabzavotlar, meva va rezavorlar, 18 tonna (100,0 foiz) hosil yig'ib olindi.

Demak, qishloq xo`jalik ishlab chiqarishni ilmiy asoslangan holda oqilona tashkil etish ixtisoslashuvini takomillashtirish qator muhim iqtisodiy vazifalarni hal etish imkoniyatlarini beradi. Bu birinchidan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tabiiy, iqtisodiy, mehnat resurslaridan va xo`jalik bo`g`inlarining ichki imkoniyatlaridan to`la foydalanish imkoniyatni yuzaga keltiradi. Ikkinchidan esa, qishloq xo`jalik ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishini va ixtisoslashuvini takomillashtirish oziq-ovqat muammosini hal etishga, umumiy salohiyatning o`sishiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bitiruv malakaviy ish jarayonida quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

1.Respublikamiz agrosanoat majmuida agroservis xizmatlari o`zining alohida xususiyatlari bilan boshqa xizmat yo`nalishlaridan tubdan farq kiladi. Zero, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida agroservis tizimi qishloq xo`jalik korxonalari - fermer va dehqon xo`jaliklarining ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va uzlucksiz samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda ob'ektiv zaruriyatga aylangan muhim xizmat ko`rsatuvchi subyektlar majmuasini tashkil etadi. Agroservis subyektlari xizmatlari - bu bozor iqtisodieti sharoitida iste'molchilar talab va taklifi asosida shakllanuvchi hamda uni amalga oshiruvchilar tomonidan qishloq xo`jaligi tarmog`ining majmuaviy xarakterdagи ehtiyojlarini qondiruvchi, zamonaviy innovatsion texnika va texnologiyalarga asoslangan daromad keltiruvchi maqsadga muvofiq faoliyatlar majmuasidan iboratdir.

2.Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish tizimlaridan biri hisoblangan agroservis xizmatlari ko`rsatish bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy kategoriya sifatida o`zining bir qator xususiyatlariga ega bo`lib, jumladan, qishloq xo`jalik tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilari - fermer va dehqon xo`jaliklarini servis xizmat ko`rsatish vazifalaridan ozod etib, faqatgina ishlab chiqarish faoliyati bilan shug`ullanishiga imkon yaratadi hamda ular xizmatidan foydalangan barcha ho`jalik subyektlariga qo`shimcha daromad olishga ko`mak beradi. SHuningdek, qishloq xo`jaligida mehnat unumdarligini oshiradi, mehnat taksimotini maqbullashtirib, qishloqda aholini ish bilan band qilish muammosini hal qilishga yordam beradi.

3.Agroservis xizmatlari samaradorligini baholash tizimi quyidagi asosiy tamoyil va talablarga javob berishi lozim. Jumladan:

- ko`rsatkichlar tizimi agroservis xizmatlar samaradorligining muhim belgilarini ajratib ko`rsatishi hamda iqtisodiy mohiyatini ochib berishga asoslanishi;

- dialektik mantiq nuqtai nazaridan tizimning barcha ko`rsatkichlari o`zaro bog`liqlik va uyg`unlikda ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish natijalarining miqdori, qiymati va sifati darajasini ob'ektiv aks ettirishi;
- agrar sohaning turli tarmoqlarida agroservis xizmatlaridan foydalanish darajasiga umumlashgan baho berishi;
- agroservis xizmat ko`rsatish tizimining samaradorlik ko`rsatkichini aniqlashda taqqoslash tamoyiliga amal qilinishi;
- agroservis xizmat ko`rsatish tizimining barcha ko`rsatkichlari agrar tarmoqni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, ilmiy-texnika taraqqiyoti jarayonini rag`batlantirishga asos bo`lib xizmat qilishi zarur.

4. Respublikamizda agroservis xizmatlari bozori va uning tarmoqlar bo`yicha ilmiy asoslangan tarkibiy-funktsional tuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agroservis xizmatlari bozori (AXB) bu bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo`jaligida servis xizmatiga bo`lgan talab va taklif asosida shakllanuvchi hamda uni amalga oshiruvchi qishloq xo`jalik mahsulotlari bilan bog`liq ehtiyojlarni qondiruvchi. zamonaviy texnika va texnologiyaga asoslangan yuqori daromad keltiruvchi, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi), iste'molchi va xizmat ko`rsatuvchilar o`rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi mexanizmlarni qamrab oluvchi yaxlit tizimdir.

5. Qishloq xo`jaligida agroservis xizmatlarini amalga oshirish jarayonidagi mavjud kamchilik va muammolarni samarali hal etish uchun respublika agroservis xizmatlari bozorida vujudga kelgan bir qator iqtisodiy munosabatlardagi, jumladan, agroservis subyektlari va fermer hamda dehqon xo`jaliklari o`rtasidagi shartnomaviy munosabatlar, ko`rsatilgan xizmatlar uchun tomonlar manfaatlariga mos to`lovni amalga oshirish (differentsatsiyalashgan to`lov baholari asosida), davlat tomonidan tartibga solinadigan ma'muriy munosabatlar, shuningdek, agroservis korxonalari O`rtasidagi o`zaro munosabatlar kabilarda manfaatli aloqalarni o`rnatish va ularning qat'iy bajarilishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

6. Qishloq xo`jaligida sodir bo`layotgan navbatdagi tub tarkibiy va tashkiliy-iqtisodiy o`zgarishlar jarayonida barcha agrar resurslardan samarali foydalanishda mavjud agroservis xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishning muhim iqtisodiy asosi hisoblangan agroservis subyektlarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash va kredit resurslari ta'minoti tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

7. Mamlakatimizda agroservisini rivojlantirish bosqichma-bosqich bozor munosabatlariiga o`tib borar ekan, bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlarda to`plangan tajribalarni umumlashtirib, chuqur tahlil qilgan holda, ularning mamlakatimiz sharoitiga mos yo`nalish va jihatlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribalar taxliliga asosan umumiylashtirishni xulosa kilib aytganda, mamlakatimizda ham fermer xo`jaliklariga agroservis xizmatlari ko`rsatuvchi yangi subyektlar (kooperativlar, uyushmalar) faoliyatini yo`lga kuyish mumkin. Bunday kooperativlar yoki uyushmalar tumanlar yoki tumanlardagi hududlar miqyosida o`zaro manfaatdorlik va ixtiyoriylik tamoyillariga muvofiq tuzilishi mumkin.

8. Ma'lumki, qishloq xo`jalik korxonalariga texnik servis xizmatlari ko`rsatish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan tahlillarimiz natijalariga ko`ra, muqobil MTPlarning qulaylik va afzallikkari quyidagilar bilan izohlanmoqda. Birinchidan, ularning ushbu xo`jaliklarga masofa jihatidan yaqinligi va murakkab texnik xizmatlarini tezkor bajara olishligi, ikkinchidan, har qanday o`lchamli yer maydonlariga mos mexanizatsiya ishlarini mijozlarga qulay xizmat baholarida bajarish imkoniyatlarining mavjudligi kabilardir.

Tadqiqot jarayonida agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Respublikada bozor munosabatlari sharoitiga mos agroservis xizmat ko`rsatish tizimini nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish zarur, deb hisoblaymiz va buning uchun: birinchidan, «agroservis», «agroservis xizmatlari» atamalarining dialektik asoslari, xususan, ularning mazmun-mohiyatini, shakllanish jihatlari, yo`nalish va xususiyatlarini; ikkinchidan, «agroservis

xizmatlar bozori»ning o`zaro aloqadorlik, bog`liqdir, to`ldiruvchanlik tamoyillari va rivojlanish qonuniyatlarini; uchinchidan, agroservis xizmatlari samaradorligining baholashning dinamik va intensivlik darajasini ifodalovchi ko`rsatkichlari va ularni hisoblash usullarini agroservis xizmatlari samaradorligini oshirish chora-tadbir va mexanizmlarini takomillashtirishda e'tiborga olish va qo`llash maqsadga muvofiq.

2. Agroservis xizmatlari samaradorligini aniqlash hisob-kitobini taqqoslash usuli asosida amalga oshirishni taklif etamiz. Bunda agroservis subyektlari faoliyati to`liq taminlangunga kadar va agroservis faoliyatiga asoslangan davrdagi qishloq xo`jaligi rivojlanishining asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlar tizimini taqqoslab tahlil qilinishning maqsadga muvofiqligi asoslandi. Tahlil natijalariga asosan mavjud muammolarni aniqlash va istiqbolda ularni hal etish uchun lozim bo`lgan ustuvor vazifalar belgilandi.

3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O`zbekistonda agroservis xizmatlari bozorida quyidagi ustuvor yo`nalishlarni rivojlantirishni zarur, deb hisoblaymiz:

- agroservis xizmatlari ehtiyojlari asosida bozor kon'yunkturasi o`zgarishiga tez moslanuvchan servis xizmatlarining yangi turlarini shakllantirish (tezkor veterinariya, tezkor yem-xashak ta'minoti xizmatlari) va mavjudlarining boshqarish tuzilmasini (muqobil MTP, SIU) takomillashtirish hamda ularni har tomonlama moliyaviy qo`llab-quvvatlash;

- agroservis xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, jumladan, xizmatlar bahosini tabakalashtirish, ya'ni, mavsum davrlari hamda ish va xizmatlarni bajarib berish muddatiga karab o`zgaruvchan baholarni shakllantirish, shartnomaviy aloqalarni kuchaytirish;

- respublika qishloq xo`jaligi taraqqiyotining kontseptual yo`nalishlardan kelib chiqib, agroservis xizmatlarini rivojlantirishning tarmoq va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jixozlangan qishloq xo`jaligi mahsulotlari (meva va sabzavot, sut, go`sht kabilar)ni qayta ishlash, saklash va nobutgarchiliksiz tashish xizmatlarini intensiv rivojlantirish.

4. Agroservisni rivojlantirishni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishda quyidagi tavsiyalarni inobatga olish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

-kreditlash sohasida kooperativ kredit uyushmalari soni va faoliyatini yanada kengaytirish, mol-mulklarni garovga kuyish asosida kredit olish va qaytarish tizimlarini takomillashtirish;

- agroservis xizmatlari uchun qo`shimcha soliq imtiyozlari berish;
- maqsadli va uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratish;
- tayyor mahsulotlarni eksport qilish xizmatlarini amalga oshirish bo`yicha bojxona imtiyozlari tizimini kengaytirish.

5. Agroservis xizmatlari ko`rsatish samaradorligini ta'minlashda servis xizmatlari xarajatlarini kamaytirish zarur va buning uchun kuyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, jumladan:

- resurslardan maqsadli va samarali foydalanish (xo`jasizlik va ierofgarchilikka yo`l kuimaslik);
- ilmiy asoslangan xizmatlar sarfi me'yorlaridan foydalanish;
- xizmat ko`rsatuvchi texnikalar (moddiy-texnika resurslari) narxlarini asossiz oshib ketishiga yo`l ko`ymaslik;
- resurstejovchi, arzon va sifatlari xizmat ko`rsatish texnologiyalarini tatbiq etish, malakali xodimlar mehnatidan unumli foydalanish va ularni moddiy rag`batlantirish.

6. CHorvachilikda agroservis tizimini modernizatsiyalash bo`yicha tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan modul doirasidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni xayotga tatbiq etish uning iqtisodiy, huquqiy va moddiy-texnika asoslarini takomillashtirish, agroservis subyektlarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash mexanizmlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.:O‘zbekiston, 2003 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida»gi PF-5308-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018 yil 29 yanvar, 4-son, 68-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan” Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi, 2018 yil 19 yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lish kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 31 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. // “Xorazm haqiqati” gazetasi. 2017 yil 18 yanvar. № 5 (19351).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF - 4947-sonli Farmoni.
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O`zbekiston Respublikasi tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida (O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2017 y., 15-son, 248-modda)
8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishslash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida (O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2017 y., 16-son, 270-

modda).

9. O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O`zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish ma'rosimidagi nutqi. Xalq so`zi. 7 iyun 2014 yil.
10. O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Ma`kamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so`zi. 2014 yil 18 yanvar.
11. O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2012 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so`zi, 2013 yil 19 yanvar.
12. Karimov I.A. "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini YAngi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi // O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O`zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi". Xalq so`zi, №14 (5434). 2012 yil 20 yanvar.
13. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - Birinchi Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 30 yanvar.
14. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. - Birinchi Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 28 yanvar.

15. I.A.Karimov. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. Toshkent, "O`zbekiston", 2009.
16. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. Birinchi Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so`zi, 2009 yil 14 fevral.
17. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - xayot haqiqatini aks ettirish. T.: O`zbekiston, 2009. - 24 b.
18. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. "2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida", 2009 yil 13 fevral.
19. O`zbekiston Respublikasining "Budget tizimi to`g`risida"gi Qonuni. Normativ-huquqiy xujjatlar to`plami. Toshkent. O`zbekiston. 2002. 2 T. 321-353 6.
20. O`zbekiston Respublikasining "Mahalliy o`zini-o`zi boshqarish to`g`risida" Qonuni.
21. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma'ruba. "O`zbek xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo`lmaydi". Toshkent: O`zbekiston. 2005. 13 T. 174-222.
22. Karimov I.A. Demokratik taraqqiyot yo`lidan. По пути демократического развития. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak kitobida. Toshkent. O`zbekiston. 2002. 10 T. 184-195 b.
23. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish - bosh yo`limiz. "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak". Toshkent. O`zbekiston. 2002. 10 T. 192-230 6.

24. O`zbekiston Respublikasining "Korxonalar to`g`risida"ti qonuni. "Xalq so`zi", 1991.24 dekabr. O`zbekistonning yangi qonunlari. 2-tom -Toshkent: Adolat,1991.
25. O`zbekiston Respublikasi qonun va farmoyishlari. - Toshkent: O`zbekiston 1992.-381 b.
26. O`zbekiston Respublikasining "Dehqon fermer xo`jaligi to`g`risida"gi qonuni. - Toshkent: O`zbekiston. 1992
27. O`zbekiston Respublikasining "Er solig`i to`g`risida"gi qonuni. -Toshkent: O`zbekiston 1993
28. O`zbekiston Respublikasining korxonalar ijara mulkchiligi to`g`risidagi qonunlari.-Toshkent: Adolat.1997.
29. O`zbekiston Respublikasining yer kodeksi. T.: O`zbekiston. 1998
30. O`zbekiston Respublikasining "Fermer xo`jaligi to`g`risida"gi qonuni.- Toshkent O`zbekiston. 1998
31. Abirkulov K.N. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti.-T. :Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2004.-183 b.
32. Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил с комплексным развитием регионов Узбекистана. - Т.: 1992.-120 с.
33. Володин А.А. США. Экономика и местные органы власти.-М.: Наука, 1984. -210 с.
34. Васков СТ. Территориальное управление в новых условиях хозяйствования. -М.: Экономика, 1990.-190 с.
35. Штульберг Б.М. Регулирование территориального развития в условиях рыночной экономики. -М.: Наука, 1993.-261с.
36. Юсупов А.Т. Развитие и размещение производства товаров народного потребления: теория, методология и перспективы развития. Т: Мехнат, 1991.-16 с.
37. Якубов И.А., Расулова И.А. Конкурентоспособность экономики регионов.-Т.: Узбекистан, 2006.-180с.

38. Entoni Giddens. Sotsiologiya. O`quv qo`llanma. T.: "SHark". 2002. -847 bet.
39. Социално-экономическое развитие регионов// Экономика Узбекистана. - Ташкент: 2004.-№7.-C.73-81.
40. Сайдахмедов Х.М., Якубов И.А. Краткий обзор социално-экономического развития регионов Узбекистана // Рынок, деньги и кредит.-Тошкент: 2004.-№-12.- C.22-23.
41. Рузметов Б. Формирование комплексной региональной стратегии в условиях углубления экономических реформ //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mintaqani barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish muammolari.//Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman mat. - Urganch: 2007.- B.5-6.
42. www.cer.uz – Центр экономических исследований.
43. www.review.uz – Журнал экономических обозрение.
44. www.antorlov.nm.ru
45. www.newtech.ru/orlov
46. www.uzinfocom.uz
47. www.uzsci.net
48. www.aci.uz
49. www.gov.uz
50. www.stat.uz
51. www.xorazm.stat va boshqa saytlar ma'lumotlaridan foydalanildi.